

### III. QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQCHILIK XO‘JALIGI



2024- yilning yanvar-mart oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmatlar) larining umumiy hajmi 3 166,5 mlrd. so‘mni yoki 2023 yilning shu davriga nisbatan 103,4 foizga o‘ydi, shu jumladan dehqonchilik va chorvachilik hamda ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar 3 008,9 mlrd. so‘mni (103,4 %), ovchilik sohasida ko‘rsatilgan xizmatlar 0,07 mlrd. so‘mni (101,4 %), o‘rmon xo‘jaligida 84,0 mlrd. so‘mni (102,8 %), baliqchilik xo‘jaligida 73,6 mlrd. so‘mni (104,4 %) tashkil qildi. Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmatlar)lari hajmining o‘sishi asosan dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohada ko‘rsatilgan xizmatlar hajmining sezilarli darajada ortishi bilan bog‘liqdir.

Xususan, yuqori o‘shish sur‘atlari Zafarobod (18,7 %), G‘allaorol (6,0 %), Paxtakor (5,9 %) va Mirzacho‘l (4,8 %) tumanlarida kuzatildi. O‘z navbatida Do‘stlik (0,4 %) va Zomin tumanlarida (1,1 %) nisbatan past o‘shish sur‘atlari kuzatildi.



#### 2024- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi

Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari;  
92,1%



Qishloq xo‘jaligi korxonalarini;  
2,6%

Fermer xo‘jaliklari;  
5,3%

Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining tarkibiy tuzilishida eng yuqori ulush dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri keldi (umumiy hajmga nisbatan 92,1 foiz).

**Dehqonchilik.** 2024- yilning yanvar-martida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 96,3 mlrd. so‘mni yoki 2023- yilning shu davriga nisbatan o‘shish sur‘ati 104,3 foizni, ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida ulushi 3,2 foizni tashkil qildi.

**Hosilni yig'ib olish.** Hisobot davrida barcha toifadagi xo'jaliklarda 982,0 tonna sabzavotlar yig'ib olindi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,3 foizga o'sdi.




2024- yilning yanvar-mart oylarida xo'jalik toifalari bo'yicha asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish

	Barcha toifadagi xo'jaliklar		Shu jumladan:					
			Fermer xo'jaliklari		Dehqon va tomorqa xo'jaliklari		Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	tonna	o'sish sur'ati, foizda	tonna	o'sish sur'ati, foizda	tonna	o'sish sur'ati, foizda	Tonna	o'sish sur'ati, foizda
Sabzavotlar-jami	982,0	102,3	63,0	118,9	560,0	102,2	359,0	100,0




2023- yilning yanvar-mart oylarida hududlar kesimida asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish

**HUUDDLAR BO'YICHA SABZAVOTLAR YETISHTIRISH**



**Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**



Sabzavotlar yetishtirishning eng katta hajmi 560 tonna yoki umumiy yetishtirish hajmidan 57,0 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida qayd etildi.

Eng kam hajm 63 tonna yoki umumiy yetishtirish hajmidan 6,4 foizi fermer xo‘jaliklarida kuzatildi.

2024- yilning yanvar-mart oylarida o‘tgan yilga nisbatan fermer xo‘jaliklarida 18,9 foizga, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida 2,2 foizga o‘shirish kuzatilgan bo‘lsa, qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida o‘shirish kuzatilmadi.

**Chorvachilik.** Chorvachilik sohasining imkoniyatlarini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarning izchillik bilan amalga oshirilishi hamda davlat tomonidan ko‘rsatilayotgan tizimli qo‘llab-quvvatlashlar natijasida qoramollar bosh sonining o‘shirishiga, ichki iste‘mol bozorlarining chorvachilik mahsulotlari bilan to‘yinishiga imkon yaratdi.

2024- yilning yanvar-mart oylarida 2 875,2 mlrd. so‘mlik chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarilib, o‘shirish sur‘ati 2023- yilning shu davriga nisbatan 103,3 foizni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 96,8 foizni tashkil etdi.

2024- yilning 1-aprel holatiga viloyatdagi yirik shohli qoramollar bosh soni 939,6 mingtani (101,1 %), shu jumladan sigirlar bosh soni 272,1 mingtani (102,4 %), qo‘y va echkilar bosh soni 2 410,4 mingtani (103,4 %), otlar bosh soni 31,7 mingtani (102,8 %) va parrandalar bosh soni 3 785,5 mingtani (97,5 %) tashkil qildi.



2024- yil 1-aprel holatiga xo'jalik toifalari bo'yicha chorva mollari va parrandalar bosh soni

	Barcha toifadagi xo'jaliklar		Shu jumladan:					
			Fermer xo'jaliklari		Dehqon va tomorqa xo'jaliklari		Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	bosh soni	o'sish sur'ati, foizda	bosh soni	o'sish sur'ati, foizda	bosh soni	o'sish sur'ati, foizda	bosh soni	o'sish sur'ati, foizda
Yirik shoxli qoramollar	939 554,0	101,1	61 873	105,3	844 081	100,5	33 600	110,2
Sigirlar	272 134	102,4	20 840	120,8	240 981	101,5	10 313	92,6
Qo'y va echkilar	2 410 381	103,4	449 363	104,4	1 588 471	100,5	372 547	115,9
Otlar	31 676	102,8	7 885	103,0	18 414	101,9	5 377	105,5
Parrandalar	3 785 494	97,5	301 291	119,0	1 688 955	103,5	1 795 248	89,9

Umumiy bosh soniga nisbatan dehqon va tomorqa xo'jaliklarida yirik shoxli qoramollarning ulushi 89,8 foizni, fermer xo'jaliklarida 6,6 foizni tashkil etdi, sigirlar mos ravishda 88,5 va 7,7 foizni, qo'ylar va echkilar 65,9 va 18,6 foizni, parrandalar 44,6 va 8,0 foizni tashkil qildi.



## HUDUDLAR BO‘YICHA YIRIK SHOHLI QORAMOLLAR YETISHTIRISH

Yirik shoxli qoramollar umumiy bosh sonining eng katta ulushi G‘allaorol tumaniga (18,7 %) to‘g‘ri keldi. Shuningdek, yuqori ulush Baxmal (17,7 %) va Zomin (12,4 %) tumanlarida qayd etildi.



Shu bilan birga, yirik shoxli qoramollar umumiy bosh sonidagi eng past ulush Jizzax shahri (1,4 %) va Do‘stlik tumani (4,1 %) da kuzatildi.

Boshqa hududlar bilan taqqoslaganda, 2023- yil yanvar-martga nisbatan eng yuqori o‘shish sur‘atlari G‘allaorol (113,8 %) va Arnasoy (107,8 %) tumanlarida qayd etildi.

Soni (ming bosh)

Jizzax sh.	13,2
Do‘stlik	38,9
Zafarobod	39,4
Mirzacho‘l	40,0
Yangiobod	44,8
Arnasoy	48,5
Paxtakor	52,8
Zarbdor	53,2
Forish	67,1
Sh.Rashidov	83,3
Zomin	116,2
Baxmal	166,5
G‘allaorol	175,6

### Jami bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi



- 2024- yilning 1-aprel holatiga ko‘ra, barcha toifadagi xo‘jaliklarda:
- yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 939,6 mingtaga etdi.
  - yirik shoxli qoramollar bosh soni 2023- yil 1-aprelga nisbatan 10,7 mingtaga (1,1 %) ko‘paydi.
  - yirik shoxli qoramollar bosh sonining 89,8 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri keldi.

2024- yilning yanvar-mart oylarida o‘tgan yilga nisbatan fermer xo‘jaliklarida 5,3 foiz, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida 0,5 foizga o‘shish kuzatildi.



**HUUDUDLAR BO‘YICHA  
SIGIRLAR  
YETISHTIRISH**

Soni (ming bosh)


Sigirlar umumiy bosh sonining eng katta ulushi Baxmal tumaniga (17,2 %) to‘g‘ri keldi. Shuningdek, yuqori ulush G‘allaorol (15,4 %) va Zomin (14,8 %) tumanlarida qayd etildi.

Shu bilan birga, sigirlarning umumiy bosh sonidagi eng past ulush Jizzax shahri (1,4 %) va Mirzacho‘l tumanida (3,8 %) kuzatildi.

Boshqa hududlar bilan taqqoslaganda, 2023 yilning yanvar-martiga nisbatan eng yuqori o‘sish sur‘atlari Zafarobod tumani (15,2 %) va Jizzax shahrida (14,7 %) qayd etildi.

Jizzax sh.	3,8
Mirzacho‘l	10,4
Arnasoy	11,8
Zafarobod	12,2
Do‘stlik	12,3
Paxtakor	14,7
Yangiobod	16,1
Zarbdor	17,6
Forish	19,4
Sh.Rashidov	25,0
Zomin	40,2
G‘allaorol	42,0
Baxmal	46,7

**Sigirlar jami bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**



2024- yilning 1-aprel holatiga ko‘ra, barcha toifadagi xo‘jaliklarda:

- sigirlarning umumiy bosh soni 272,1 mingtaga etdi.
- sigirlar bosh soni 2023- yil 1-aprelga nisbatan 6,3 mingtaga (2,4 %) ko‘paydi.
- sigirlar bosh sonining 88,5 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri keldi.

2024- yilning yanvar-mart oylarida o‘tgan yilga nisbatan fermer xo‘jaliklarida 20,8 foizga o‘sish kuzatildi.




### HUDUDLAR BO‘YICHA QO‘YLAR VA ECHKILAR YETISHTIRISH

Qo‘y va echkilar umumiy bosh sonining eng katta ulushi Forish tumaniga (36,3 %) to‘g‘ri keldi. Shuningdek, yuqori ulush G‘allaorol (14,0 %) va Baxmal (12,6 %) tumanlarida qayd etildi.


Shu bilan birga, qo‘y va echkilar umumiy bosh sonidagi eng past ulush Arnasoy tumanida (1,2 %) va Jizzax shahrida (1,6 %) kuzatildi.

Boshqa hududlar bilan taqqoslaganda, 2023 yilning yanvar-martiga nisbatan eng yuqori o‘sish sur‘atlari Arnasoy (12,8 %) va Jizzax shahrida (10,4 %) qayd etildi.

Soni (ming bosh)



### Qo‘ylar jami bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi



2024- yilning 1-aprel holatiga ko‘ra, barcha toifadagi xo‘jaliklarda:

- qo‘y va echkilar umumiy bosh soni 2 410,4 mingtaga etdi.
- qo‘y va echkilar bosh soni 2023- yilning 1-apreliga nisbatan 78,4 mingtaga (3,4 %) ko‘paydi.
- qo‘y va echkilar bosh sonining 65,9 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri keldi.

2024- yilning yanvar-mart oylarida o‘tgan yilga nisbatan fermer xo‘jaliklarida 18,6 foizga o‘sish kuzatildi.




**HUUDUDLAR BO‘YICHA  
PARRANDALAR  
YETISHTIRISH**

Parrandalar umumiy bosh sonining eng katta ulushi G‘allaorol tumaniga (35,0 %) to‘g‘ri keldi. Shuningdek, yuqori ulush Sharof Rashidov (11,8 %) va Zomin (10,5 %) tumanlarida qayd etildi.


Shu bilan birga, parrandalar umumiy bosh sonidagi eng past ulush Yangiobod (1,3 %) va Do‘stlik (1,5 %) tumanlarida kuzatildi.

Boshqa hududlar bilan taqqoslaganda, 2023 yilning yanvar-martiga nisbatan eng yuqori o‘shish sur‘atlari Mirzacho‘l tumanida (163,0 %) qayd etildi.

Soni (ming bosh)



**Parrandalar jami bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**



2024- yilning 1-aprel holatiga ko‘ra, barcha toifadagi xo‘jaliklarda:

- Parrandalarning umumiy bosh soni 3 785,5 mingtani tashkil qildi.
- Parrandalar bosh soni 2023- yil 1-aprelga nisbatan 95,8 mingtaga (2,5 %) kamaydi.
- Parrandalar bosh sonining 47,4 foizi qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlariga to‘g‘ri keldi.

2024- yilning yanvar-mart oylarida o‘tgan yilga nisbatan fermer xo‘jaliklarida 8,0 foizga o‘shish kuzatildi.



## HUDUDLAR BO‘YICHA OTLAR YETISHTIRISH

Otlar umumiy bosh sonining eng katta ulushi Forish tumaniga (33,1 %) to‘g‘ri keldi. Shuningdek, yuqori ulush Sharof Rashidov (14,0 %) va Baxmal (11,0 %), tumanlarida qayd etildi.



Shu bilan birga, otlarning umumiy bosh sonidagi eng past ulush Jizzax shahri (0,7 %) va Do‘stlik tumanida (0,7 %) kuzatildi.

Boshqa hududlar bilan taqqoslaganda, 2023 yil yanvar-martga nisbatan eng yuqori o‘shish sur‘atlari Jizzax shahrida (53,7 %) va G‘allaorol (28,9 %) tumanlarida qayd etildi.

Soni (ming bosh)

Jizzax sh.	0,2
Do‘stlik	0,2
Arnasoy	0,4
Yangiobod	0,6
Paxtakor	0,6
Mirzacho‘l	1,6
Zafarobod	1,9
Zomin	2,4
Zarbdor	2,4
Baxmal	3,1
G‘allaorol	3,5
Sh.Rashidov	4,4
Forish	10,5

### Otlar jami bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi



2024- yilning 1-aprel holatiga ko‘ra, barcha toifadagi xo‘jaliklarda:


- Otlarning umumiy bosh soni 31,7 mingtaga etdi.
- Otlar bosh soni 2023- yil 1-aprelga nisbatan 855 boshga (2,8 %) ko‘paydi.
- Otlar bosh sonining 58,1 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri keldi.

2024- yilning yanvar-mart oylarida o‘tgan yilga nisbatan fermer xo‘jaliklarida 3,0 foizga o‘shish kuzatildi.



## CHORVACHILIK MAHSULOTLARI

2024- yilning yanvar-mart oylarida chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish hajmi 2 875,2 mlrd. soʻmni yoki 2023- yilning mos davriga nisbatan 103,3 foizni tashkil qildi. Jami yetishtirilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 96,8 foizni tashkil etdi.



Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli ko'mak ko'rsatib kelinayotganligi chorva mollari va parrandalari bosh sonining ko'payishiga, ichki iste'mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to'ldirishga imkon yaratdi.

2024- yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklarda tirik vaznda 37,7 ming tonna go‘sht (2023- yilning yanvar-martiga nisbatan 2,9 foizga), 125,5 ming tonna sut (2,4 %), 62,8 mln. dona tuxum (10,2 %) va 699 dona qorako‘l teri (44,4 %) yetishtirilib, 3 342,2 tonna baliq (5,5 %) ovlandi.




**2024- yilning yanvar-mart oylarida xo‘jalik toifalari bo‘yicha asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish**


	Barcha toifadagi xo‘jaliklar		Shu jumladan:					
			Ferma xo‘jaliklari		Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari		Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	tonna	o‘sish sur‘ati, foizda	tonna	o‘sish sur‘ati, foizda	tonna	o‘sish sur‘ati, foizda	tonna	o‘sish sur‘ati, foizda
Go‘sht, tirik vaznda, tonna	37 730,0	102,9	1 043,0	110,3	35 934,0	101,5	753,0	2,3 m.
Sut, ming tonna	125 510,0	102,4	3 415,0	106,0	12 1423,0	102,2	672,0	117,9
Tuxum, ming dona	62 781,0	110,2	4 454,0	136,8	32 536,0	100,4	25 791,0	121,0
Qorako‘l teri, dona	699,0	144,4	495,0	2,9 m.	0,0	0,0	204,0	66,0
Ovlangan baliq tonna	3 342,2	105,5	306,0	114,9	428,0	104,1	2 608,2	104,7



**HUUDLAR BO‘YICHA  
GO‘SHT  
YETISHTIRISH**



**Jami go‘sht yetishtirishning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**



2024- yilning yanvar-mart oylarida go‘sht yetishtirish to‘g‘risidagi ma‘lumotlarning xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil natijalariga ko‘ra, go‘sht yetishtirishning eng katta hajmi 35,9 ming tonna yoki umumiy yetishtirish hajmidan 95,2 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida qayd etilganligini ta‘kidlash lozim.

Ko‘rsatib o‘tilgan davrlarda, go‘sht yetishtirishning eng kam hajmi 0,7 ming tonna yoki umumiy yetishtirish hajmidan 2,0 foizi fermer xo‘jaliklarida kuzatildi.


2023- yilning mos davri bilan solishtirganda, 2024- yil yanvar-martida fermer xo‘jaliklarida 10,3 foizga, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida 1,5 foizga, qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 2,3 marta o‘shirish kuzatildi.




## HUDUDLAR BO‘YICHA SUT YETISHTIRISH

Hajmi (ming tonna)

Viloyatning umumiy hajmga nisbatan ulushi, % da



### Jami sut yetishtirishning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi



2024- yilning yanvar-mart oylarida sut yetishtirish to‘g‘risidagi ma‘lumotlarning xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil natijalariga ko‘ra, sut yetishtirishning eng katta hajmi 121,4 ming tonna yoki umumiy yetishtirish hajmidan 96,7 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida qayd etildi.

Ko‘rsatib o‘tilgan davrda, sut yetishtirishning eng kam hajmi 0,7 ming tonna yoki umumiy yetishtirish hajmidan 0,6 foizi qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda kuzatildi.


2023- yilning mos davri bilan solishtirganda, 2024- yil yanvar-martida fermer xo‘jaliklarida 6,0 foiz, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida 2,2 foiz, qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 17,9 foiz o‘shish kuzatildi.



**HUUDUDLAR BO'YICHA  
TUXUM  
YETISHTIRISH**



**Jami tuxum yetishtirishning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**



2024 yilning yanvar-mart oylarida tuxum yetishtirish to'g'risidagi ma'lumotlarning xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil natijalariga ko'ra, tuxum yetishtirishning eng katta hajmi 32,5 mln. dona yoki umumiy yetishtirish hajmidan 51,8 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklarida qayd etilganligini ta'kidlash lozim.

Ko'rsatib o'tilgan davrlarda, tuxum yetishtirishning eng kam hajmi 4,4 mln. dona yoki umumiy yetishtirish hajmidan 7,1 foizi fermer xo'jalilarida kuzatildi.


2023- yilning mos davri bilan solishtirganda, 2024- yil yanvar-martida fermer xo'jaliklarida 36,8 foiz, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida 0,4 foiz kamayish, qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 21,0 foiz o'sish kuzatildi.




**HUDUDLAR BO'YICHA  
BALIQ  
YETISHTIRISH**

Hajmi (tonna)

Viloyatning umumiy hajmiga nisbatan ulushi, % da



**Jami baliq yetishtirishning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**



2024- yilning yanvar-mart oylarida baliq yetishtirish to'g'risidagi ma'lumotlarning xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil natijalariga ko'ra, baliq yetishtirishning eng katta hajmi 2 608,2 tonna yoki umumiy yetishtirish hajmidan 78,0 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda qayd etildi.

2023- yilning mos davri bilan solishtirganda, 2024- yil yanvar-martida fermer xo'jaliklarida 14,9 foiz, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida 4,1 foiz, qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 4,7 foiz o'sish kuzatildi.